

This is not registered version of TotalDocConverter

Dan o'shirkuniga bir yil ko'chaga chiqam. Yechikuz bo'lsa ham havo ochiq, quyosh charaqlab turardi. Hamma yoqda yaproqlar: ok, sariq, yashil yaproqlar... Go'yo ko'chaga chiqishingizni kimdir bilganu yo'lingizga gilam to'shab qo'ygan. Har yili kuzda, xazonrez paytida menga shunday tuyuladi. Shuning uchun ham ko'chaga chiqaman, serdaraxt xiyobonlarni uzoq-uzoq aylanaman.

Bugun ham shunday bo'ldi. Uyimiz ro'parasidagi qayinzorga o'tdim. Oyog'ingiz ostida yaproqlar, ming xil rangdagi yaproqlar g'alati ohang kashf etib shitirlaydi. Yoqimli o'rmon isi dimog'ingizga uriladi. Shimirib to'ymaysan kishi.

Bir oz aylanib, qayinzorni kesib o'tgan ariqcha labidagi skameykaga o'tirdim. Birdan qayinzor qorong'ilashdi. Daraxtlar orasidan tushib turgan tanga-tanga shu'lalar so'ndi. Tepaga qaradim. Ko'k betini parcha-parcha qora bulutlar qoplab olgan edi. Ko'p o'tmay, qayinzorni tasir-tusir tovushlar qoplab, yomg'ir quya boshladi. Panjara devor orqasida allanima dup etib yerga tushdi. Shu topdayoq qo'rquv aralash ququlagan xo'roz ovozi eshitildi. Chumchuqlar galasi chirqillaganicha, gur etib bir daraxtdan ikkinchisiga o'tar, u yerda ham tinchimasdan, yana gur etib uchinchisiga uchib qo'nardi.

Yerda tangadek ochiq joy qolmadi. Hammasini xazon qopladi. Yomg'ir zarbidan barglar duv-duv to'kilardi.

Men bu manzaradan ko'zimni uzolmay, kostyumimning yoqasini ko'tarib olib turaverdim. Atrofim birpasda xalqob-xalqob suv bo'lib ketdi. Yomg'ir yaproqlarni xuddi varrak piri-piraganday pirillatar, keyin esa, butun kuchi bilan yerga yopishtirib, mutlaqo qimir etmaydigan qilib qo'yardi. O'z novdalaridan uzilib, yer bilan tep-tekis bo'lgan bu yaproqlarni ko'rib, ko'nnglim buzilib ketdi. Yomg'ir esa xamon yog'ardi. Ba'zi joylarda loyqa suvdan boshqa hech narsani ko'rib bo'lmasdi.

Bir mahal qayinzor yorishdi. Yomg'ir siyraklashdi. Panjara devor tomondan xo'roz qichqirdi va bir-ikki ququlab, qanotlarini qoqib qo'ydi.

Yuzimdagi yomg'ir tomchilarini yengim bilan sidirib, tepamga qaradim. Qaradimu, ko'zlarim qamashib ketdi. Ro'paramdagi qayinning eng yuqori shoxida bir narsa xuddi oltindek tovlanib turardi. Qo'limni soyabon qilib yaxshilab qaradim. Bu... oddiy yaproq, sap-sariq qayin yaprog'i edi.

Unga, shu kichkina, yengilgina tebranib turgan yaproqqa tikilar ekanman, bir voqea esimga tushib ketdi.

Erta bahor edi. Daladan kelayotgan edim. Nima uchun borganman u yoqqa, hozir eslolmayman. Anchagina yo'l bosib, ko'prik tuzatayotgan odamlar oldidan chiqib qoldim. So'rashib, bo'sh yotgan zambil ustiga o'tirdim-da, papiros tutadim.

- Havo aynayapti, - dedi paxtalik chopon kiygan yoshgina yigit osmonga qarab. - Bulutning avzoyi boshqacha.

Beixtiyor osmonga qaradim. Haqiqatan ham havo aynamoqda edi. Bir papiros chekkulik vaqt o'tmoldiki, allaqaerda momaqaldiroq gulduradi.

- Ana, aytmadimmi? - dedi o'sha yigit, qarshisida xoda yo'nayotgan cholga qarab. - Bo'ldi qila qolaylik. Innaykeyin...

U gapini tugatolmadi, sharros yomg'ir quyib ketdi. Yana momaqaldiroq gulduradi. Yigit qo'lidagi belkuragini tashlab, chopib ketdi. Qolganlar ham uning ketidan yo'lga tushishdi. Faqat chol parvo qilmadi, bir xodani yo'nib bo'lib, ikkinchisini qo'lga oldi.

Uning ko'm-ko'k tomirlari bo'rtib chiqqan uzun qo'llari nihoyatda tez harakat qilardi.

- Qo'ying, keyin qilarsiz, - dedi kimdir jahl bilan. - Qochib ketmaydi-ku.

Chol indamadi. Ko'm-ko'k ko'zlarini odamlarga tikib, jilmaydi-da, yana mukkasidan ishga tushib ketdi. Yomg'ir zo'rayib jalaga aylandi, ammo u o'rnidan turmasdi. Uning yonida mendan boshqa hech kim qolmagan edi. Chiday olmadim:

- Ota, yursangiz-chi! - dedim.

Shunday dedimu, o'zim odamlar ketgan tomonga yugurdim. Ular bekinishgan joy - egasi tashlab ketgan chayla edi. Men ham shu yoqqa kirdim. Hammamiz jim edik. Yomg'ir esa hamon yog'ardi, go'yo osmon teshilgandek. Bir mahal kimdir o'rnidan turib, tashqariga chiqdi. Ko'prik tomonga birpas tikilib turdi-da, qaytib kirdi.

- Ishlayapti, - dedi sekin va hammaga bir-bir qarab, yugurganicha chayladan chiqib ketdi. Ko'p o'tmay, chaylada men bilan paxtalik kiygan yigitdan boshqa hech kim kolmadi. Yigit ko'zlarini yerdan uzmasdan o'tirardi. Men ham g'alati bo'lib ketgan edim.

Bir-birimizga qaray olmay, nihoyat o'rnimizdan turdik. Tashqariga chiqqanimizda yomg'ir hamon yog'ar, ammo bulutlar orasidan quyosh mo'ralab turardi. Ko'prikka yaqinlashganimizda hech kim bizga e'tibor bermadi. Yigit belkuragini olib yana ishga tushib ketdi. Men cholga tikilib qoldim. Uning qip-qizil yuzida, peshonasida, qalin kulrang mo'ylovi ustida oltin donalari yaltirardi.

Bular termi yo yomg'ir tomchilarimi, ajratish qiyin edi.

...Qayin daraxti uchidagi kichkina yaproq menga shu cholni eslatib yuborgan edi. Tepamga yana qaradim. Yaproq quyosh nurida oltindek tovlanib, yengil tebranganicha ko'kka dadil bo'y cho'zib turardi.